

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI TOVUSHGA TAQLID SO'ZLAR

Bayimbetova Mexriban Berdibaevna

Nukus davlat pedagogik instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası assistenti,

Nukus, Qoraqalpog'iston

E-mail: bayimbetovam@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi tovushga taqlid so'zlari tahlil qilinib, ularning til jonlilik va ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Tovushga taqlid so'zlar inson nutqi, hayvonlarning ovozlari va atrof-muhitdagi tabiiy tovushlarni ifodalash orqali ma'no va tovush o'rtasida bevosita bog'liqlikni hosil qiladi. Tadqiqotda tovushga taqlid so'zlari manbasiga qarab tasniflanib, inson tomonidan chiqariladigan tovushlar, qush va hayvonlarning ovozlari hamda jonsiz jismlar tomonidan hosil bo'ladigan tovushlarga ajratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va qoraqalpoq tillarida tovushga taqlid so'zlar o'xshash xususiyatlarga ega bo'lsa-da, madaniy va lingvistik tafovutlar ularning shakllanishi va qo'llanishida farqlarga olib keladi. Ushbu maqola onomatopiyaning muloqot, adabiyot hamda tillararo taqqoslashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Tovushga taqlid, lingvistik ifodalilik, fonetik ramziylik, ingliz tili, qoraqalpoq tili, tillararo taqqoslash, kognitiv lingvistika.

Tovushga taqlidlar ko'pincha tabiiy tovushlarga, hayvonlarning shovqinlariga va boshqa tovush chiqarish hodisalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Onomatopik so'zlar tilga jonlilik va ta'sirchanlik qo'shishi mumkin, chunki ular so'z va u ifodalagan tovush o'rtasida bevosita aloqa hosil qiladi.

P.I.Grigoreva va D.O.Berezutskaya tasniflash tovush manbasining turiga asoslanishi mumkin deb hisoblaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, taqlidlarni tasniflash ikkita parametr bo'yicha amalga oshiriladi: taqlidlarning kelib chiqishiga ko'ra va adabiyotda qo'llanilishi bo'yicha. Bu olimlar taqlidchilarni 5 ta guruhga ajratdilar [Grigoreva & Berezutskaya 2017:1]:

1) odamdan chiqadigan tovushlarga taqlid qilish: cough (yo'tal), yell (qichqirmoq), giggle (xirillab kulmoq), sniff (pishillamoq);

(2) qush tovushlariga taqlid qilish: tweet (sayramoq), chirp (shirillamoq);

(3) hayvonlar tomonidan chiqarilgan tovushlarga taqlid qilish: moo (mongramoq), quack (qichqirmoq);

(4) tabiiy tovush hodisalariga yoki jonsiz jismlar tomonidan hosil qilinadigan tovushlarga taqlid qilish: rat-a-tat (taqillatmoq), knock (qarsillatmoq);

(5) Aralash tovushlarga: zzz, (uyquda yotgan odam yoki hayvonning chuqur nafas olishiga taqlid qilish).

Ingliz tilida eshitish sezgilarini ko'rish sezgilari bilan taqqoslab foydalanishga yo'naltirilgan. Tovush u yoki bu voqealik hodisasining signalidir. Shuni ta'kidlash kerakki, tovushni qabul qilish, masalan, rangga qaraganda osonroq. Chunki biz odatda obyektning rangini uzoq yoki qisqa vaqt davomida kuzatish orqali xulosa chiqaramiz va ko'pincha bu davr oralig'ida vaqtni cheklab o'tirmaymiz. Biz ovozni ancha qisqa vaqt ichida tez qabul qilamiz. Bularning barchasi subyektiv aloqadan xulosa chiqarishda eshitish sezgilarini, taqlidchilik lug'ati ta'sirida, shuningdek, badiiy adabiyot tili sabab bo'ladi [Flaksman 2019:1067].

Shuni ta’kidlash kerakki, onomatopik soʻzlar turli tillarda bir-biridan farq qilishi mumkin va turli madaniyatlar tovushlarni boshqacha nomlashi va anglatishi mumkin. Bundan tashqari, bir qator taqlidlar mintaqaviy dialektlarga koʻra bir necha shakl yoki oʻzgarishlarga ham uchrashi mumkin. Umuman olganda, onomatopoeia tilga ta’sirchanlik oʻlchamini qoʻshib, uni yanada dinamik va jozibali qiladi [Bayimbetova 2024:490].

Qoraqalpoq tilida tovushga taqlid soʻzlar tabiat hodisalarining, atrofdagi narsalarning harakatlanishi, bir-biriga toʻqnashish jarayonlarida hosil boʻlgan tovushlarga, odamlarning, hayvonlarning, qushlarning chiqargan tovushlariga taqlid qilishdan hosil boʻladi.

Tilimizdagi ushbu soʻzlar boʻyicha toʻplagan misolimizda tovushga taqlidni ifodalovchi soʻzlarning quyidagi turlari mavjudligi aniqlandi [Embergenov 1990:17]:

1. Odamning nutqi natijasida hosil boʻlgan tovushlar. Olar **gaʻngir- guʻngir** soʻylesip palaw jedi (M. Aybek). Bularni **gubir-gubir** soʻyleskenlerin shalama-shekkilew esittim (A. Atajanov). Aldimizdagilar **gawir-gawir** soʻylesedi (A. Aliev).

2. Odamlarning kulishlari natijasida chiqqan tovushlar: Xan suwdan qarliqqan teke dey **lars-lars** kuldi (T. Qayıpbergenov). Narbay shashtärezdin sonıgı sozine shıdamay **wa-ha-halap** kulip jiberdi (A. Qahhar). Endi qayda keteyin dep Seliyma **larq-larq** kuldi (K. Sultanov).

3. Sevganda va yoʻtalganda chiqqan tovushlar: Burıngı ádetinshe balasının qasına bardı da, mańlayınan **shorp-shorp** etkizip suydi (K. Sultanov). Olardı oyatıw maqsetinde **oho-oho** dep jóteldi (G. Seytnazarov).

4. Burun boʻshligʻidan chiqqan tovushlar: Murınların **qorq- qorq** etkizip tartıp, zordan soʻleydi (A. Shamuratov). Ermat murnınıń suwın **pirq-pirq** tartadı (M. Aybek). Turımbet júdá boldırıp sharshağanba, **qur-qur** uyıqlap qaldı (T. Qayıpbergenov).

5. Tishlarning bir-biriga tegishidan chiqqan tovushlar: Burqırağan shań olardıń tislari arasında **gıshır-gıshır** shaynaldi (I. Qurbanbaev).

6. Ovqatni yoki boshqa narsani chaynaganda chiqqan tovushlar: Sen bılqıldıq nan jeseń de bede jegen attay **gart-gurt** shaynaysań („Ózbek gurrińleri"). Turımbet endi qaǵazdı emes, qálemniń ushın awzına salıp **gashır-gashır** shaynap jiberdi (T. Qayıpbergenov).

7. Uyqu paytida chiqadigan turli tovushlarga taqlid qilish: Turımbet júdá boldırıp sharshağan ba, **qurr-qurr** uyıqlap ketti (T. Qayıpbergenov). Ol kóp keshikpey-aq **qor-qor** uyıqlap qaldı. Pıshıqtay **pir-pir** uyıqladı (j “Ámiudarya”).

8. Hayvonlarning chiqargan tovushlariga va ularning harakatidan hosil boʻlgan tovushlarga taqlidlar: Astındaǵı qara at, **shińgir-shińgir** kisnedi (Alpamis). Ğazdıń shıǵarǵan sesi: Báhar shıǵıwdan ǵazlar dawısların sıbızǵıday **gańq-gańq** etkizip, koldin ishin jańǵırtadı (A. Begimov).

Umuman olganda qoraqalpoq tilida har qanday predmetdan chiqadigan mayli u jonli boʻlsin yoki jonsiz, ularning tovushiga taqlid qiluvchi soʻzlar bor. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi tovushga taqlid soʻzlarini misollar bilan roʻyxatini tuzib chiqdik. (Qarang: 1-jadval)

1-jadval

№	Turi	Ingliz tilidagi misollar	Tarjimasi	Qoraqalpoq tilidagi misollar	Qoraqalpoq tilidagi misollar	
				Jonli jonzotlar	Turi	Jonsiz narsalar
1	Odamdand keladiagn tovushlarga taqlid soʻzlar	belch, boom,	kakirmoq, qiygʻirmoq,	gungir- guʻngir, gubur-gubur, lars-lars, va-ha-	Oʻtning yonish oldidan va yonish	bij-bij, lov-lov

		giggle, sniff	hiringlamoq, hidlamoq	ha, chorp-chorp, qurr-qurr	jarayonida hosil bo‘lgan tovushlar	
2	Qushning tovushlariga taqlid	tweet, chirp, chick	sayramoq, chirillamoq, chip- chip (jo‘ja)	ga‘nq-ga‘nq, gırq-gırq, gaq- gaq, goqo-goq, shıq-shıq, jırq- jırq	Suv bilan yuz beradigan tovushlar	chomp, har-har, loq- loq, liq- liq
3	Hayvonlar tomonidan chiqarilgan tovushlarga taqlid qilish	meow- meow, moo, quack, neigh, woof	miyovlamoq, mongramoq, qag‘-qag‘, kisnamoq, urmoq	shingir-shingir, awiq-awiq, mo- mo-mo, ma-a, mirriq-mirriq (qurbaqa)	Suyuq narsalarning qaynagandagi tovushlari	biqir-biqir, paqir-paqir, saqir-saqir
4	Tabiiy tovush hodisalariga yoki jonsiz jismlar tomonidan yaratilgan tovushlarga taqlid qilish	rat-a-tat, thump, knock,	taqillatmoq, mushtlamoq, qoqmoq	Dang‘ir-dang‘ir, guw-guw, toq- toq, sitir-sitir	Soat, qo‘ng‘iroq, telefon, tugma va t, b. yurish harakat jarayonida chiqariladigan tovushlar	Tiq-tiq, shirr, shiqillatmo q,
5	Aralash tovushlarga taqlid so‘zlar	click, jingle, whoosh, zzzz	shiqillatmoq, qo‘ng‘iroq chalinmoq, shamolning esishi, izillamoq(telefon vibratsiyasi)		Mashina, traktor, poyezd, tank va h.k. texnikalarning chiqargan tovushi	gurr-gurr, taq-taq, zir-zir, shiyiq- shiyiq, g‘ur-g‘ur.

Tovushga taqlid so‘zlar tilning jonlilik va ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular tabiiy tovushlar, hayvonlarning, odamlarning chiqargan tovushlariga va jonsiz jismlarning shovqinlariga taqlid qilish orqali tilga maxsus jonli obrazlar qo‘shadi. Onomatopik so‘zlar va ularning turli shakllari nafaqat tilning dinamikligini oshiradi, balki ularning ishlatilishi ham madaniyat va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Shunday qilib, tovushga taqlid so‘zlari tilning estetikasini boyitishda, uning muloqotda yanada rang-barang va jonli bo‘lishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ембергенов У. Хэзирги каракалпак тилиндеги еликлеуиш сөзлер. Нөкис.Қарақалпақстан. 1990. 17-6.
2. Григорьева П.И. 1 , Березуцкая Д.О. Особенности звукоподражаний в английском языке. КиберЛенинка. Электронный журнал 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-zvukopodrazhaniy-v-angliyskom-yazyke>
3. Флакман М.А. От и.-е. *це до англ. **window**: возраст и количество звукоизобразительной лексики в английском языке. Санкт-Петербургский гос. электротехнический университет DOI:10.30842/ielcp230690152379. 2019.- 1067 с.
4. Bayımbetova Mexriban Berdibaevna, & Mambetniyazova Hurliman Maratovna. Inglis hám qarqalpaq tillerindegi eliklewishlerdiń seslik qurılısın úyreniw. *Hamkor Konferensiyalar*, 1(7), 2024. 488–492. Retrieved from